

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-martdag'i «O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida» PQ-4249-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4257083>
4. Salimov O. va boshqalar. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari. O'quv qo'llanma. – T.: TIQXMMI. 2019. – 450 b.
5. Saidov M.S. Elektr energetika tarmog'ini tartibga solish va boshqarishning iqtisodiy xususiyatlari. // Iqtisodiyot va ta'lif. / 2023-yil, 1-son. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/950/863>
6. Anorboev A., Qodirov D. Energiya tejamkorlik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: TIQXMMI. 2020. – 147 b.
7. Saidov M.S. Elektr energetikasi sohasining boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari. // Iqtisodiyot va ta'lif. / 2023-yil 3-son. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1129/1016>
8. Abulqosimov H. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya, 2012. – 351 b.
9. Zokirov Sh. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish borasidagi xorij tajribasi. // Iqtisodiyot va ta'lif. / 2023-yil 7-12-b.
10. Xonkeldiyeva G. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korporatsiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. 08.00.13 – "Menejment" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2018.
11. U.S. Energy Information Administration. International Energy Outlook 2016. With Projections to 2040. R. 1. [https://www.eia.gov/outlooks/ieo/pdf/0484\(2016\).pdf](https://www.eia.gov/outlooks/ieo/pdf/0484(2016).pdf)
12. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish istiqbollari. BTM, taraqqiyot dasturi, O'zbekiston. 2007-y.
13. Saidov M.S. Elektr energetika tarmog'ini boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy-elektron jurnal. 1/2023, yanvar-fevral (№ 00063). DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a19
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-martdag'i "Gidroenergetika sohasini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-104-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/6420310>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldag'i "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6385716>
17. Saidov M.C. Ўзбекистонда табиий монопол ташкилотларни бошқариши ва тартибга солишининг иқтисодий ва ҳуқуқий жиҳатлари. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnal. 3-son, may-iyun, 2021-yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/11_Saidov.pdf
18. Saidov M.C. Глобаллашув шароитида табиий монопол ташкилотлар фаолиятини давлат томонидан тартибга солишининг институционал хусусиятлари. // «Таълим-тарбия жараёнига инновациян ёндашувлар, муаммо ва ечимлар» мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси. – Т., 2022 й. 197-203-б. <https://zenodo.org/records/6585036>
19. Saidov M.C. Табиий монопол ташкилотларни бошқаришининг назарий-услубий жиҳатлари. // Иқтисодиёт ва таълим. 2021 йил, 2-сон. <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3104/816>
20. Saidov M.C. Табиий монопол ташкилотларни бошқаришда рақобат муҳитини ривожлантириши. // Иқтисодиёт ва таълим. 2021 йил, 4-сон. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/125/121>
21. Saidov M.C. Табиий монополияларни бошқариши ва тартибга солишиниг хориж тажрибаси. // Иқтисодиёт ва таълим. 2021 йил, 5-сон. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/209/256>



OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION SALOHIYATNI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xamrayev Nodirbek Ravshanovich
Qarshi davlat universiteti

doi: https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a35

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada oziq-ovqat korxonalarida innovatsion salohiyatni oshirish mexanizmini takomillashtirish, oziq-ovqat korxonalarini boshqarish mexanizmini yaxshilamasdan, ularning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirmay, tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va tashqi manbalardan investitsiyalar kiritishni ko'paytirish masalalari tadqiq qilingan. Bundan tashqari qayta ishlash sanoati mahsulotlari sifatini oshirish nafaqat xorijiy investitsiyalarning kirishini rag'batlantirish, balki butun korxona faoliyatini zamon talablariga mos holda modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, oziq-ovqat bozori, oziq-ovqat turlari, innovatsion salohiyat, bozor elementlari, boshqaruv startegiyasi, raqobat ustunligi, bozor imkoniyatlari, iqtisodiy mexanizm, tashkiliy mexanizm, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik subyekti, tadbirkorlik qobiliyati, tadbirkorlik infratuzilmasi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА НАРАЩИВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Хамраев Нодирбек Равшанович

Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной научной статье рассматривается проблема совершенствования механизма наращивания инновационного потенциала на предприятиях питания, повышения эффективности предпринимательской деятельности без совершенствования механизма управления предприятиями питания, совершенствования системы защиты их прав, увеличения притока инвестиций из внешних источников. Кроме того, даны предложения и рекомендации по повышению качества продукции перерабатывающей промышленности не только для стимулирования притока иностранных инвестиций, но и для модернизации, технического и технологического обновления деятельности всего предприятия в соответствии с требованиями времени.

Ключевые слова: пищевая промышленность, продовольственный рынок, виды продуктов питания, инновационный потенциал, элементы рынка, стратегия управления, конкурентное преимущество, рыночные возможности, экономический механизм, организационный механизм, предпринимательская деятельность, хозяйствующий субъект, предпринимательская способность, инфраструктура предпринимательства.

IMPROVING THE MECHANISM OF INNOVATION CAPACITY BUILDING IN FOOD INDUSTRY ENTERPRISES

Khamraev Nodirbek Ravshanovich

Karshi State University

Annotation. In this scientific article, it remains a problem to improve the mechanism of innovative capacity building in food enterprises, increase the efficiency of entrepreneurial activity and increase investment from external sources without improving the mechanism of management of food enterprises, improving the system of protection of their rights. In addition, proposals and recommendations have been made to improve the quality of products of the processing industry not only to stimulate the entry of foreign investments, but also to modernize, technically and technologically update the activities of the entire enterprise in accordance with the requirements of the Times.

Keywords: food industry, food market, types of food, innovative potential, market elements, management startup, competitive advantage, market opportunities, economic mechanism, organizational mechanism, entrepreneurial activity, business entity, entrepreneurial ability, entrepreneurial infrastructure.

Kirish. O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati faoliyatini yanada takomillashtirish, sohada barqaror rivojlantirishga asos bo'lувчи qonun hujjatlari ishlab chiqish, bundan tashqari xalqaro integratsiyalashuv jarayonlarida faol ishtirok etishga alohida e'tibor berilmoqda. Oziq-ovqat sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabni maksimal darajada qondirish, oziq-ovqat sanoatining unumdorligini orttirish, sohada axborot texnologiyalarni va sun'iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish muhim omil sanalmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan bozor iqtisodiyoti tamoyillari, iqtisodiy islohotlarni jadallashtiradigan xususiyatlar, ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalarini samarali boshqarishning innovatsion yo'nalishlariga talab tobora ortib bormoqda. Oziq-ovqat sanoati foydalanilayotgan eskicha tizimdagи boshqaruv usullarining mavjudligi dolzarb muammo sanaladi. Boshqaruv tizimi – ichki tuzilishi bilan tavsif-

lanadigan boshqaruvning tashkiliy tuzilishi nafa-qat o'ziga xos boshqaruv tizimi, balki uning ichida o'zgarishlar yuz beradigan shakl, tizimning yangi sifatga o'tish shartlari paydo bo'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, iqtisodiyotni modernizatsiyalash bora-sidagi sa'y-harakatlarning yanada kuchaytirilishi sharoitida hozirgi kunda oziq-ovqat sanoati korxonalarida texnika va texnologiyalarni keng joriy etish hamda investitsiyalar jalb qilish doirasini kengaytirish kerak. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida turli mulchilikka asoslangan ishlab chiqarishning vujudga kelishi, asosan, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, ya'ni iqtisodiyotda sanoat korxonalari ko'rinishidagi birlashmalarning rivojlanishi, ularda xo'jalik yurituvchi subyektlar, hissadorlik jamiyatlari, unitar (shu'ba) korxonalar, mas'uliyati cheklangan va cheklaganmagan jamiyatlari vujudga keldi. Shuningdek, tashkil etilgan korxona va tashkilotlar o'z faoliyatlarining jahon hamjamiatiga integratsiyalashuvi orqali

innovatsiya va investitsiya mablag'larini ko'paytirish hisobiga o'zlariga iqtisodiy shart-sharoitlar yaratadi.

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda sifat o'zgarishlaridan samaraliy foydalanish maqsadida mavjud texnika va texnologiyalarga suyagan holda, innovatsion faoliyatdan samarali foydalanish va uni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga ham ahamiyat qaratish darkor. Bu rivojlangan mamlakatlar darajasiga tenglashish imkonini bersa, faqat faol innovatsion faoliyatgina ushbu muvaffaqiyatning uzoq muddatini ta'minlaydi.

Respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalg qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi. Shuningdek, oxirgi uch yilda import o'rnnini bosuvchi 75 turdag'i 289,9 million AQSh dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi; keyingi besh yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi loyihalarga investitsiyalarni jalg qilish, bozorda raqobatbardosh mahsulotlar turini yanada kengaytirish, import o'rnnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hisobiga yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravarga va eksport ko'rsatkichlarini 2 baravarga oshirish maqsadida [1]:

1. Oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasini rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashirish uchun:

a) «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi modernizatsiya qilish» loyihasi doirasida jalg qilingan mablag'lar hisobidan 80 million AQSh dollari va «Chorvachilik sohasini rivojlantirish (2-bosqich)» hamda «Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish» loyihalari doirasida jalg qilingan mablag'lar hisobidan 40 million AQSh dollarini yo'naltirish bo'yicha Jahon banki va Fransiya taraqqiyot agentligi bilan kelishuvga erishilganligi ma'lumot uchun qabul qilins;

b) Qishloq xo'jaligi vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, tijorat banklari bilan birgalikda:

2024-yil 1-iyulga qadar «Meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjiri yaratishni rivojlantirish (2-bosqich)» loyihasi doirasida jalg qilingan 100 million AQSh dollarini oziq-ovqat yo'nalishidagi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirish masalasini Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan kelishsin;

qayd etib o'tilgan xalqaro moliya institutlaridan jalg qilingan mablag'lar hisobidan 45 million AQSh dollarini belgilangan tartibda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi hamda eksport qiluvchi korxonalarini aylanma mablag'lar bilan ta'minlashga yo'naltirsin.

O'zbekiston iqtisodiyotida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga oid islohotlarning chuqlashuvi yuz bermoqda. Jumladan, oziq-ovqat korxonalarini boshqarish mexanizmini yaxshilamasdan, ularning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirmay tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va tashqi manbalardan investitsiyalar kiritishni ko'paytirish muammo bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari qayta ishlash sanoati mahsulotlari sifatini oshirish nafaqat xorijiy investitsiyalarning kirishini rag'batlantirish, balki butun korxona faoliyatini zamon talablariga mos holda modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni ham qamrab olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 18-fevralda PQ-2492-sonli «Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilingan [2]. Bu qarorga ko'ra «Respublika oziq-ovqat sanoatini tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi»da belgilangan vazifalar va tadbirlarni bajarish yuzasidan korxonalariga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalg etish, oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatining samaradorligini tubdan oshirish, bo'lajak investorlar uchun ularning ochiqligi va jozibadorligini ta'minlash, korxonalarini strategik boshqarishda oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlar rolini kuchaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalarini o'rganish va ularga yechim topish lozim.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi, aholi turmush darajasini oshirish hamda aholining yashash farovonligi hal qiluvchi mavjud resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha to'plangan ilmiy-amaliy texnologik salohiyatni davriy ravishda amalga oshirishga bog'liq. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirayotgan asosiy elementi hisoblanib, mavjud loyihalarni tatbiq etish hamda yangi

g'oyalarni amalga oshirishda yetakchilik innovation tadbirkorlik, innovator-subyektlarga ko'p darajada daxldordir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rivojlan-
gan mamlakatlarda sanoat korxonalarining bosh-
qarish tizimida innovations faoliyatning strategik
va tizimli yondashuviga alohida e'tibor berilgan.
Natijada aniq bir tarmoqda ishlab chiqarishni
samarali amalga oshirish, boshqaruvni markaz-
lashtirish va innovations faoliyatning yanada
kuchayishi kuzatilmoque. Chunki xususiy mulk-
chilikning rivojlanishi oziq-ovqat sanoati korxo-
nalarida innovations faoliyat samaradorligini
oshirishni talab etadi. Davlat tomonidan xususiy
mulk va mulk egalarining huquqlari himoya
etilishi investorlar tomonidan oziq-ovqat sanoati
korxonalarida innovations muhitni yaxshilashga
imkoniyat beradi.

Oziq-ovqat sanoati oziq-ovqat mahsulotlari-
ni tayyor shaklda yoki yarimtayyor mahsulotlar
shaklida, shuningdek, ichimliklar ishlab chiqaradi-
gan sanoat tarmoqlari guruhidir. Oziq-ovqat sa-
noati korxonalar xomashyoni yig'ish, ularni qayta
ishlash va yakuniy iste'molchiga yetkazib berishni
tashkil etishni eng yaxshi shaklga keltirish bilan
shug'ullanadi. Asosiy maqsad aholining oziq-
ovqatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun
mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan [3].

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorining maz-
mun-mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi,
unga ta'sir etuvchi omillarni baholashdagi uslubiy
yondashuvlarda alohida yagona bir fikrga erishil-
magan. Oziq-ovqat tovarlari bozori tushunchasiga
olimlar turli xil yondashuvlar asosida ta'rif
berishgan. Biz o'z tadqiqotimizda ularning ayrim-
larini qiyosiy tahlil etishni joiz deb bildik.

Oziq-ovqat sanoati aholi yashash punktlari-
da rivojlangan. Bu xomashyodan keng foydalani-
shinga va oziq-ovqat mahsulotlarini doimiy
iste'mol qilishga yordam beradi. Lekin bu turdag'i
sanoatning ham o'ziga xos qonuniyatlar mavjud
bo'lib, bu tarmoqdagi korxonalar joylashtirish,
ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga
asoslanadi. Mamlakatimizning yetakchi ilmiy-
tadqiqot institutlari olimlarining tavsiyalari
asosida, qishloq xo'jaligining rivojlanishi ishlab
chiqarishning ushbu sohasiga sezilarli darajada
ijobiyl natijasini beradi: u hududlardagi ushbu
tarmoq korxonalariga hamda hayvonlar uchun
ham ozuqa yetkizib berishni o'z ichiga olgan
tarmoqdir [4].

V.D.Goncharov bozor elementlarini to'liq
aks ettirishga harakat qilib, oziq-ovqat tovarlari
bozorini «oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarish
va taqsimlash jarayonida vujudga keladigan xo'ja-
lik yurituvchi subyektlarning xaridor va sotuvchi

tanlashdagi, narx belgilashdagi va mablag' shakl-
lantirishdagi erkinlik bilan tavsiflanadigan iqtiso-
diy munosabatlar tizimi»[5] deb ataydi. N.P.Keto-
va esa shu ta'rifni to'ldirib, «axborotdan foydala-
nish»ni [6] ham qo'shadi.

L.A.Aliyeva va T.Svetlorusova oziq-ovqat
tovarlari bozorini «qishloq xo'jaligi, qayta ishslash
va oziq-ovqat iste'molchilari o'rtasidagi vositachi»
[7] sifatida ta'riflaydi.

Y.B.Kostrova oziq-ovqat tovarlari bozoriga
dinamik tizim deb qaraydi: «Mahsulot sifati va
narxi nazorat qilinib, ishlab chiqaruvchi va iste'-
molchi o'rtasidagi mustahkam aloqa, mutanosib
ravishdagi ishlab chiqarish va yetkazishdagi
dinamik tezkor tizimdir» [8].

Oziq-ovqat sanoatining murakkab tarmoq
deb e'tirof etilishiga uning birlamchi ehtiyojni
qondirishi uchun mamlakat aholisiga oziq-ovqat
sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishidir.
Bugungi rivojlanish bosqichida oziq-ovqat sanoati
korxonalarining faoliyat turi va tarmog'i ko'payib
bormoqda. Oziq-ovqat sanoat tarmog'i mahalliy
qishloq xo'jaligi, chorvachilik, bog'dorchilik,
ba-
liqchilik, parrandachilik va mahsulotlar yetkazib
berish bilan boshqa tarmoqlarga bevosita bog'-
langan sanoat hisoblanadi. Jamiyatdagi o'rtacha
bitta odam iste'mol qiladigan oziq-ovqatning 83 %
qismi qishloq xo'jaligi taqmog'i orqali ishlab
chiqariladi [9].

Umumiy mazmunda, oziq-ovqat sanoatida
tadbirkor o'z faoliyati jarayonida nafaqat o'z
manfaatini, balki jamoa, jamiyat manfaatlarini va
iste'mol tanlovini ham qondirishga xizmat qiladi.
Eng muhim, bu faoliyat tufayli aholi farovonligini
ta'minlash, uning kundalik iste'mol mahsulotlari
uchun zarur bo'lgan talabini uzluksiz ishlab
chiqarish imkoniyatini yanada kengaytiradi, deb
hisoblanadi [10].

S.U.Nuraliyev va D.S.Nuraliyeva ham «Oziq-
ovqat ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish
sohasida vujudga keladigan iqtisodiy munosa-
batlar tizimi» [11] deb ta'riflaydi.

Iste'molchilarning eng zarur ehtiyojlarini
qondirishi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari orqali
amalga oshadi. Natija sifatida insoniyatning hayot
tarzi yaxshilanadi. Jalon mamlakatlaridagi hozirgi
vaziyat, bir tomonidan, uchinchi dunyo mamlakat-
larida juda ko'p och odamlarning mavjudligi bilan,
boshqa tomonidan, rivojlangan mamlakatlarda
ortiqcha oziq-ovqat ishlab chiqarish va uning
iste'moli bilan tavsiflanadi [12].

O.N.Fetyuxina esa oziq-ovqat tovarlari
bozori tushunchasini yoritishda «sotsium» (tabaq-
alanish) va «raqobatda ustunlik» kabi kategoriya-
larni qo'llab, quyidagicha ta'rif beradi: «Raqobat

ustunliklari ko'rinishidagi keskin ta'sir ko'rsatadi-gan jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy ta'minlash tizimi, uning asosiy tarkibiy qismi oziq-ovqatga bo'lgan biologik ehtiyojlar, shuningdek, aholining to'lov qobiliyati va milliy ishlab chiqarish va import orqali shakllanadigan taklif tufayli noelas-tik talabdan iborat» [13].

I.G.Ivolga fikricha, «Oziq-ovqat tovarlari bozori davlat agrar siyosati va xalqaro integrat-siya jarayonlari ta'siri bilan shakllanadigan, ichki ishlab chiqarish va import hisobiga aholini yetarli hajmdagi iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi xomashyosi va ozuqa mahsulot-lari ishlab chiqarish, saqlash va siljитish bo'yicha bozor subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimidir» [14].

G.M.Zinchuk esa «oziq-ovqat bozorini oziq-ovqat xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste'mol qilishni qamrab oluvchi iqtisodiyotning tarkibiy qismi, sifatida belgilaydi» [15].

Oziq-ovqat sanoati faoliyati jarayonini bosh-qarishda nazariy jihatdan bir nechta bosqichlar mavjud bo'lib, u boshqaruva tizimi yuzasidan ma'lumot toplash, obyekti va subyektini ajratib olish, uning subyekti xususiyatlarini ajratish, strategik boshqaruva yo'nalishlarini tanlash, oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatidagi jarayonni boshqarish, boshqaruva mexanizmini muayyan shaklga keltirish va rasmiylashtirish, boshqaruva mexanizmining elementlarini, ularning o'zaro bog'liqligini asoslash, boshqaruvening maqsad va vazifalarga muvofiq turli vositalarini belgilashdan iborat [16].

Respublika oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirishga qaratilgan muammolarni o'rganish, innovatsion faoliyatning samaradorligi, avvalambor, mamlakatda innovatsion muhitni yaxshilashga qaratil-gan qonunlar doirasida yagona huquqiy me'yorlar tizimini shakllantiradigan institutsiional asoslarni ishlab chiqish darajasiga bog'liq ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining Jahon iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lishida asosiy vazifalar dan biri milliy iqtisodiyotda innovatsion faoliyat masalasi hisoblanib, birinchidan, innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy mexa-nizmlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, innovatsion loyihiilar, g'oyalari va ixtirolarni moliyalash tizimining rivojlanganlik jihatlariga bog'liq bo'la-di. Demak, oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatni kuchaytirishda, innovatsion faoliyatni yana-da rivojlantirishda, eng avvalo, innovatsiya va innovatsion faoliyat hamda innovatsion loyihiilar tushunchalarini o'rganish kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarining faoliyatini rivojlan-tirish mexanizmining ahamiyatini va sohadagi mavjud muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rga-nish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullari-dan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan turli mulkchilikka asoslangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi subyektlarning innovatsion faoliyati bir qator ijobiy jihatlarni o'zida mujassamlashti-rishi lozim. Jumladan: amaliyotga yangi, takomil-lashgan ishlab chiqarishni joriy etish; mahsulot ishlab chiqarish xarajatlaridan unumli foydalanish va xarajatlar rentabelligini oshirish; barcha me'-yorlarga ekologik jihatdan to'liq javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqish hamda ushbu mahsulotlar tannarxini pasaytirish; ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol va sifat xususiyatlarini doimiy ravishda oshirib borish; mavjud oziq-ovqat mahsulotlariga turdosh yangi tur oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishni kengaytirishni talab etadi.

Oziq-ovqat tadbirkorligi xo'jalik yuritish-ning xususiy shakli bo'lib, rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida ko'p asrlik rivojlanish evaziga ustuvor mavqega ega bo'ldi. Tadbirkor ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanuvchi hamda o'zing ichki imkoniyatlaridan foydalanadi va maq-sadga erishish uchun o'zining bilim va ko'nikma-lari asosida yuqori foyda olishga intiluvchi shaxs hisoblanadi. Shuningdek, oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikning innovatsion salohiyatini oshirishda quyidagi vazifalarini hal qilish zarur: oziq-ovqat sanoatida innovatsion salohiyatni oshirish-ning ustuvor vazifalarini belgilash va tatbiq etish, ilg'or tuzilmaviy o'zgarishlarni oziq-ovqat sanoatida ta'minlash; innovatsiya faoliyati infratuzilmasi ni yaratish va rivojlantirish; mahalliy oziq-ovqat mahsulotini xalqaro bozorlarga chiqarish va tash-qi iqtisodiy innovatsiya faoliyatini rivojlan-tirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; innovatsiya faoliyatini rivojlan-tirishda ilm-fan, ta'lim, ishlab chiqarish va moliya-kredit sohalarining o'zaro hamkorligini ta'minlash; xalq xo'jaligi iqtisodiyotini va uning tuzilmaviy balans strategiya-sini belgilovchi asosiy yo'nalishlarini rivojlan-tirish hamda barqarorlashtirish uchun fan-texnika salo-hiyatidan samarali foydalanishni ta'minlash [17].

Oziq-ovqat korxonalarida birlamchi tusdag'i mahsulotlar uzluksizligini ta'minlashda resurs bazasining xususiyatlarini chuqur tahlil qilish hamda malakali xodimlar, boshqaurv hamda

ma'muriy, innovatsion, asosiy ishlab chiqarish hamda moddiy tusdagi resurslarga yuqori darajadagi strategik ahamiyatga tayangan holda yondoshish zarur. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining pirovard mahsuloti agrar tarmoq va qishloq

xo'jaligi bilan uzviy bog'liqdir. Ular orqali mahsulotning sifat darajasi va tannarxini nazorat qilish imkonii mavjud. Raqobatga kirishishda ustunlikni saqlab qolishda oziq-ovqat sanoati korxonalarini mavjud resurs hamda ularning o'ziga xos alohida xususiyatlarini tahlil qilishi zarur.(1-jadval).

1-jadval

Oziq-ovqat korxonalarini tomonidan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun resurslar va ularning o'ziga xos ayrim xususiyatlari


Resurslar	Xususiyatlari
Ma'muriy	Davlat darajasidagi, xususiy tashkilotlar va muassasalar bilan o'zaro aloqalar tizimi, tashkiliy va ma'muriy boshqaruv usullari muammolarni samarali hal qiladi
Mehnat	Mehnatni boshqarish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan barcha zarur imkoniyatlarini ifodalaydi. Miqdoriy jihatdan, mehnat resurslarining miqdori xodimlarning rasmiy ravishda belgilangan yosh darajalariga, mehnatga layoqatli ishchilarining ulushiga bog'liq.
Xomashyo	Xomashyoning sifati va assortimenti ishlab chiqarish va mehnat unumдорligi omilidir. Texnologiyalarning ishlashi, ish vaqt, ishchilar tayyor mahsulot ishlab chiqarishga sarflaydigan vaqt xomashyo sifatiga bog'liq
Innovatsion (Novatsiya)	Insonlarning bilimlari, ko'nikmalari va ishlab chiqarish tajribasi hamda nomoddiy aktivlar, raqamli dasturiy ta'minot, huquqi kafolatlangan savdo markalari va boshqa iqtisodiy natijalariga ega
Moliyaviy	Kapital qo'yilmalar, xususan, aylanma mablag'ni kengaytirish, fiskal siyosatning barcha imkoniyatlarini aniqlaydi. Ular korxonani boshqarish mexanizmining hayotiy faoliyatini ta'minlaydigan "qon aylanish" tizimidir
Ishlab chiqarish	Ilmiy va texnik yuksalish bilan birgalikda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, korxonalar tomonidan tayyor mahsulotlarning yillik eng samarali ishlab chiqarilishini ta'minlash

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini asosiy ishlab chiqarish faoliyatini olib borishda ishlab chiqilgan rejaga va qabul qilingan qonun normalariga tayanib ishlab chiqilgan maxsus standartlar va mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarishni olib borishni talab etadi, bunday holatda ilmiy asoslangan va natijasi ijobiyligi kutiladigan operatsion boshqarish dasturini oziq-ovqat korxonalarini faoliyatida amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Oziq-ovqat sanoatining yanada takomillashuviga ekzogen va endogen omillarini aniqlash, ushbu omillarning vujudga kelish yo'naliishi va korxona tomonidan nazorat qilish imkoniyatini bilan ajralib turadi. Ichki omillar ishlab chiqarishning rivojlanishi va uning potensial imkoniyatlarini aniqlaydigan va ishlab chiqaruvchi tomonidan nazorat qilinadigan ham moddiy, ham nomoddiy ko'rinishdagi belgilardir. Tashqi tarzda ta'sirga ega hisoblangan omil belgilariga ijtimoiy-iqtisodiy tusdagi oziq-ovqat sanoatining rivoj topishiga xizmat qiladigan ta'siri inobatga olinadi Oziq-ovqat sanoatining innovatsiya sohasidagi asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin: oziq-ovqat sanoatida innovatsiya siyosatini shakllantirish va raqobatni rag'batlantirish, innovatsion

faoliyatning xavf-xatarligi oldini olish maqsadida uni sug'urtalash, yaroqsiz bo'lib qolgan mahsulotni iste'molga chiqarganligi uchun davlat sanksiyalarini kiritish, innovatsiyalarning ijtimoiy-ekologik yo'naliishlarini takomillashtirish orqali ilm-fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlarini belgilash.

Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlani-shida oziq-ovqat sanoati korxonalarining o'rni muhimdir. Shu sababli asosiy vazifa – iqtisodiyotni innovatsiya va investitsiyalar orqali rivojlantirisha, birinchidan, milliy daromad hajmini ko'paytirish bo'lsa, ikkinchidan, oziq-ovqat sanoatini ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlash, o'sib bora-yotgan aholi ehtiyojini zarur oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlab borish. Shu sababdan, avvalo, talabni, ya'ni ehtiyojni qondirish uchun xomashyolardan unumli foydalanish, ularni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, yuklash xizmatlariga e'tiborni kuchaytirish talab etiladi. Sanoat ishlab chiqarish fondlari samarasini oshirish bilan birgalikda korxona samaradorligini, ya'ni yangi innovatsiya va investitsiyalar darajasini oshirish hamda respublikada oziq-ovqat tadbirkorligi faoliyatini rivojlantirish masalalalarini hal qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.



1-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishda ta'sir qiluvchi omillar

Mamlakatdagi aniq ijtimoiy, iqtisodiy va ziyatlar me'yoriy-huquqiy dalolatnomasi asosida innovatsion siyosatning asoslarini qabul qilishdan

boshlanadi, unda boshqaruvi subyektlari va obyektlari, uning huquqlari, majburiyatlar va mas'ulligi belgilab qo'yiladi (1-rasm).

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion salohiyatni oshirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini me'yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining huquqiy bazasini takomillashtirish

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish

Oziq-ovqat mahsulotlarini ISO standartlari asosida ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash jihatdan

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida tezlashtirilgan amortizatsiya siyosatini qo'llash

Boshqaruvi organlari o'rtasida hisobdorlik mexanizmini takomillashtirish

Oziq-ovqat sanoati korxonalariga imtiyozli kreditlarni ajratish mexanizmini takomillashtirish

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning infratuzilma ta'minotini yaxshilash bo'yicha talablarni oshirish

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha imtiyozli bank kreditlar miqdorini oshirish va hududlar kesimida aniq belgilangan miqdorlarini belgilash

Oziq-ovqat mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishning infratuzilmaviy siyosatini kengaytirish

1-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini oshirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida tadbirkorlikning innovatsion salohiyatini oshirishda takomillashgan iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz. Innovatsion faoliyatning davlat tomonidan boshqarilishida tashkiliy mexanizmi orqali bevosita va bilvosita manfaatdor tomonlar fikrlarining hisobga olinishi hamda bir vaqtning o'zida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha kelsilgan holda chora-tadbirlarni ishlab chiqish kerak.

Xulosa va takliflar. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirish mexanizmini ilmiy-nazariy tahlil qilish natijasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning shakllarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini tartibga solishning me'yoriy-huquqiy mexanizmi. Ushbu mexanizm, asosan, o'z ichiga mammalakatimiz istiqlolga erishgandan to shu kungacha qabul qilingan oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini bevosita hamda bilvosita tartibga soluvchi turli Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar va qo'mitalar, agentliklar tomonidan qabul qilingan qonunosti hujjatlarini oladi.

2. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi. Mazkur mexanizm bevosita oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini imtiyozli kreditlar orqali moliyalash-tirish, ularga mikrolizing xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha dastaklarni, hujjatlar ni o'z ichiga oladi. So'nggi yillar mobaynida respublika oziq-ovqat sanoati korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar va ko'rsatilayot-gan mikromoliyaviy xizmatlar hajmini yildan yilga oshirib borish.

3. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini infratu-zilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi, asosan, soha faoliyatini rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash va tartibga solishga qaratilgan barcha infratu-zilmaviy yordam turlarini, xususan, tarmoq va-zirliklari, raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar hquqlarini himoya qilish qo'mitasi, savdo-sanoat palatasi, tijorat banklari, baholash tashkilotlari, investitsiya fondlari va birjalar, auditorlik, depozitariylar, sug'urta kompaniyalari, eksport-import kompaniyalari, axborot-konsalting firmalari hamda «yagona darcha» tashkilotlari tomonidan beriladigan yordamlarni doimiy oshirib borish.

4. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini mulkiy qo'llab-quvvatlash mexanizmi. Ushbu mexanizmga ko'ra, oziq-ovqat sanoati korxonalarini davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan mulkni qo'llab-quvvatlash, davlat yoki xususiy mulk ko'rinishida yetkazish yoki foydalanish imkoniyatlarini oshirish. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida infratu-zilmaviy shart-sharoitlar yaratish, jumladan: kredit shartnomasiga ko'ra majburiyatlarni amalga oshirishdagi kamchiliklar, biznesning daromadlik darajasi va kredit resursi to'lov stavkasi orasidagi yuqori farq tufayli yuzaga keladigan kredit olish bilan bog'liq muammolarni davlat tomonidan bartaraf etish; garov ta'minoti uchun banklarning talablarini kamaytirish; sohada malakali kadrlarni tayyorlash tizimini takomil-lashtirish; mintaqaviy, xalqaro bozorlarda tovar va xizmatlarning narxlari o'zgarishi va olib chiqish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish; oziq-ovqat sanoati korxonalarining mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan yetarlicha javob olinmasligi kabi ayrim institutsional to'siq chegaralarini bartaraf etish.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Республикада озиқ-овқат ҳавфисизлигини таъминлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2024 йил 16 февралдаги ПФ-36-сонли фармони. <https://lex.uz/en/docs/6802687>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 18 февралда «Республика озиқ-овқат саноатини бошқаришни ташкил этишини янада тақомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2492-сонли қарори. //Халқ сўзи. 2016 йил 19 февраль. // Lex.uz
3. Пищевая промышленность. // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / гл. ред. А.М.Прохоров. 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969-1978.
4. Ortigov A. Sanoat iqtisodiyoti (Darslik). – Т.: TDIU, 2014-у, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi "Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. – Т., 2014. 45-52-b.
5. Гончаров В.Д. Формирование продовольственного рынка. // АПК: экономика и управление. 1996. № 4. С. 51.
6. Кетова Н.П. Отраслевой маркетинг: стратегии, функции, приоритеты. Учебное пособие. –М.: Вузовская книга, 2012. С. 320.
7. Алиева Л, Светлорусова Т. Инновационная система развития агропродовольственного рынка. // АПК: экономика и управление. 2007. №4. С. 50-52. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=9487839>
8. Кострова Ю.Б. Анализ продовольственного рынка России. Монография. – СПб.: Издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2014. С. 8.
9. Cheikh Mbow (Senegal), Cynthia Rosenzweig (The United States of America) Food security. file:///C:/Users/User/Desktop/08_Chapter-5.pdf 445-pages.

10. Умаров И.Ю. Тадбиркорлик асосида фаолият кўрсатишнинг янги шакллари ва улардаги ўзгаришлар. // *Biznes-ekspert* - Т., 2019. 1-сон, 8-9-б.
11. Нуралиев С.У., Нуралиева Д.С. Основные направления развития и регулирования продовольственного рынка в условиях вступления России в ВТО. // *Пищевая промышленность*. 2012. №12. С. 10-13.
12. Гаврилов А.И. Региональная экономика и управление. Учеб. пособие. - М.: Юнити-Дана, 2010. С. 288.
13. Фетюхина О.Н. Функционирование и развитие агропродовольственного рынка России в условиях глобализации: теория, методология, практика. Автореферат на соиск. ученой степени доктора наук. - Ставрополь, 2011. С. 12-13.
14. Ивальга И.Г. Функционирование продовольственного рынка России и его адаптация к условиям ВТО. Автореферат на соиск. ученой степени кандидата экономических наук. Нальчик, 2016. С. 8.
15. Зинчук Г.М. Понятие и виды продовольственного рынка. // Альманах современной науки и образования. 2011. № 10 (53). С. 111-113.
16. Цахилова В.Ф. Развитие организационно-экономического механизма хозяйствования промышленных предприятий. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - М., 2010. С. 24.
17. Умаров И.Ю. Озиқ-овқат саноатида тадбиркорлик фаолиятни ривожлантириши истикболлари. Монография. - Т.: Фан ва технологиялар, 2014. - 114 б.
18. Saidov M.C. Ўзбекистонда табиий монопол ташкилотларни бошқариш ва тартибга солишининг иқтисодий ва хуқуқий жиҳатлари. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. 3-сон, may-iyun, 2021-yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/11_Saidov.pdf
19. Saidov M.C. Глобаллашув шароитида табиий монопол ташкилотларни бошқаришни давлат томонидан тартибга солишининг институционал ҳусусиятлари. // «Таълим-тарбия жараёнига инновацион ёндашувлар, муаммо ва ечимлар» мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси. - Т., 2022 й. 197-203-б. <https://zenodo.org/records/6585036>
20. Saidov M.C. Табиий монопол ташкилотларни бошқаришининг назарий-услубий жиҳатлари. // Иқтисодиёт ва таълим. 2021 йил, 2-сон. <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3104/816>
21. Saidov M.C. Табиий монопол ташкилотларни бошқаришда рақобат мұхитини ривожлантириши. // Иқтисодиёт ва таълим. 2021 йил, 4-сон. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/125/121>
22. Saidov M.C. Табиий монополияларни бошқариши ва тартибга солишининг хориж тажрибаси. // Иқтисодиёт ва таълим. 2021 йил, 5-сон. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/209/256>
23. Saidov M.S. Challenges and solutions of formation of competitive environment in regulation of natural monopolies. // International Journal of Advanced Research in IT and Engineering. №11 2021. 45-58. ISSN: 2278-6244. <https://garph.co.uk/IJARIE/Nov2021/G-6.pdf>
24. Saidov M.S. Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan. // INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT. ISSN (electronic): 2620-6269. ISSN (printed): 2615-4021. Vol. 5 No. 1. January 2023. P. 38-52. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/3879/3668>
25. Saidov M.S. Ways of introduction of modern management mechanisms in the electric power sector of Uzbekistan. // International Journal of Business Diplomacy and Economy. Volume 2, No 1. January 2023. P. 98-110. <https://interpublishing.com/index.php/ijbe/article/view/977/843>



KORXONALARNING ELEKTR ENERGETIKA SAMARADORLIGINI BAHOLASH: TAHLILLAR VA MODELLAR

Jo'ravayev Farrux Do'stmirzayevich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute, PhD, dots.
Doliyev Shoxabbos Qulmurot o'g'li
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute

 https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a36

Annotatsiya. Maqolada energetika samaradorligining ahamiyati, mohiyati, hududiy jihatlari, iqtisodiy holatga ta'siri bayon etilgan. Hudud korxonalarida energetika samaradorligining bugungi holati, mazkur ko'rsatkichning o'zgarish tendensiyasi, unga ta'sir etuvchi omillar ko'lami, ta'siri, o'zgartirish sur'ati tadqiq etilgan. Korxonalar faoliyatida energetika iste'molining, korxonalar demografiyasida faoliyat yuritayotgan korxonalar sonining ortishi kabi bir tizim omillarining energiya samaradorligiga ijobji ta'sirini kuzatish mumkin bo'lgan iqtisodiy sharoitlar o'rganilgan. Samaradorlikni oshirishda asosiy ichki omillar ustuvorligi baholangan. Korxonalarning energo-samaradorlik ko'rsatkichi hududiy jihatdan katta tafovutga ega bo'lishi sabablari, bu farq hududdagi aynan qaysi omillar ta'sirida shakllanishi bo'yicha ilmiy natijalar keltirilgan. Korxonalarning elektr energetikadan foydalanish jarayonida kuzatiladigan iste'mol me'yorlaridan chetlanishlar, jumladan, energo-samaradorlik ko'rsatkichining tez sur'atlarda pasayishiga olib kelishini hisobga olib, istiqbolda kutilayotgan korxonalar sonining hamda elektr energetikasiga bo'lgan talabning ortishi dinamikasida iste'mol me'yorlaridan ortishini qat'yan cheklash amliyotini rag'batlantirish bo'yicha takliflar asoslangan.

Kalit so'zlar: energetika samaradorligi, elektr energetika, taqribi funksionallik, ekonometrik model, omilli tahlil, modellashtirish, energiya samaradorlik darajalari, energiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar.